

УДК 611.019

**NAMANGAN VILOYATIDA YASHOVCHI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI  
(7-12 YOSH) BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI**

**Xaydarov R.R. Sattiboev I.I. Qodirova.M.N.**

Andijon davlat tibbiyot instituti

**REZUME**

*Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini o'rganish. Shaxar va tuman sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi yutuqlarni va kamchiliklarni o'rganish. Namangan shaxri va Chust tumanida kelajakda kuzatilishi mumkin bo'lgan jismoniy rivojlanishdagi salbiy oqibatlarini oldini olishga tafsiyalar berish.*

***Kalit so'zlar.** Antropometriya, analitik, kraniometrik, ko'krak aylanasi, tana uzunligi.*

**ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО  
ВОЗРАСТА (7-12) ЛЕТ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ГОРОДЕ НАМАНГАНЕ, И  
НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ С ЦЕЛЬЮ ОБСЛЕДОВАНИЕ  
ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВЫТИЯ**

**Хайдаров Р.Р. Саттибоев И.И. Qodirova.M.N.**

Андижанский государственный медицинский институт

**РЕЗЮМЕ**

*Были обследованы дети, проживающие в городе Намангане, и Чустском районе Наманганской области, возрасте от 7 до 12 лет, с целью выявления недостатков и достижений, а также обследования их в будущем, профилактики задержки роста и физического развития эт детей.*

***Ключевые слова.** Антропометрия, анализ, краниометрия, объём грудной клетки, рост.*

## PHYSICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE (7-12 YEARS) LIVING IN NAMANGAN REGION

**Khaydarov R.R. Sattiboev I.I. Qodirova.M.N.**

Andijan State Medical Institute

### **RESUME**

*To determine the physical development of children aged 7-12 years living in Namangan and Chust district. Identify achievements and shortcomings in the physical development of small school-age children living in urban and district settings. To make recommendations on how to prevent the negative consequences of physical development that may be observed in the future in the city of Namangan and Chust district.*

**Key words.** *Anthropometry, analytical, craniometric, chest circumference, body length.*

### **Mavzuning dolzarbligi**

Bizga malumki har bir davlatning kelajagi istiqboli o'sib kelayotgan yoshlarga bog'liq. Inson salomatligining eng odil, obyektiv ko'rsatkichlari uning jismoniy rivojlanish darajasidir. Namangan viloyati Namangan shahar va Chust tumani sharoitida yashovchi maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanish darajasi hozirgi kungacha antropometrik tekshirish usullarida o'rganilmagan.

**Ilmiy tahlil maqsadi.** Namangan shahrida va Chust tumanida yashovchi 7-12 yoshdagi bolalarda antropometrik o'lchovlarni olib bo'rish. Shahar va tuman sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi yutuqlarni va kamchiliklarni aniqlash. Bu izlanishimiz Namangan viloyatining turli aholi punktlarida (Namangan shahar va Chust tumani) istiqomat qiluvchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini yagona mintaqaviy standartlar bo'yicha baholashga

va noqulay sharoit omillarining bolalar jismoniy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

### Material va usullar

Ushbu izlanishda material sifatida Namangan viloyati Namangan shaxri va Chust tumanidan 7-12 yosh oralig'ida bo'lgan 300 nafar o'g'il va 300 nafar qiz bolalarning jismoniy rivojlanishini 9 ta antropometrik ko'rsatkichlar (tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak va bosh aylanasi, o'tirgandagi bo'yning uzunligi, teri osti yog' qatlami, bel aylanasi, erkin harakatchan qo'l uzunligi, erkin harakatchan oyoq uzunligi) orqali o'rganish. antropometrik ko'rsatkichlar o'rganiladi. Farg'ona vodiysida 2010-2021 yillar davomida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va jisniy rivojlanishi hamda antropometrik ko'rsatkichlari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganamiz.

Tumani	Yoshi	Jinsi		Umumiy
		O'g'il	Qiz	
Namangan shaxri	7-12	150	150	300
Chust tumani	7-12	150	150	300
<b>Jami</b>		<b>300</b>	<b>300</b>	<b>600</b>

### Kutilayotgan natija

Ilk bor Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini retrospektiv tahlil yordamida olinadi. Tekshirilgan bolalarlarining antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha yangilangan ma'lumotlar yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda olinadi. Ilk bor Namangan shaxrida va Chust tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishining asosiy antropometrik ko'rsatkichlari (tana uzunligi, tana og'irligi, ko'krak va bosh aylanasi o'tirgan holatdagi bo'yi, tana massa indeksi, bel aylanasi, erkin xarakatchan qo'l uzunligi, erkin xarakatchan oyoq uzunligi)

o'rganilganligi va olingan natijalar tuman va shahar (Namangan shaxri va Chust tuman) misolida solishtirib taqqoslanadi.

### **Xulosalar;**

1. Namangan shaxri va Chust tumanida kelajakda kuzatilishi mumkin bo'lgan jismoniy rivojlanishdagi salbiy oqibatlarni oldini olishga tafsiyalar berish mumkin

2. Namangan viloyatida qiladigan ilmiy tadqiqotimiz natijasi orqali kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy rivojlanishidagi akselleratsiya jarayonlarini aniqlaymiz va ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishda foydalanishimiz mumkin.

3. Yengil sanoatda bolalar bolalar kiyim boshlari o'lchovlarini aniqlashda foydalanish.

4. Olingan ko'rsatkichlar asosida bolalarni sportga yo'naltirishda tafsiya sifatida foydalanish mumkin.

5. Sud tibbiyoti fanida foydalanish mumkin

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abramovich M. A. Shahar maktab o'quvchilarining morfologik va funksional ko'rsatkichlari / M. A. Abramovich, V. N. Jdanovich, D. Yu. Andreichikov // *Probl. sog'liq va ekologiya*. - 2015. - №1 (43). - S. 96-100.

2. Averyanov A. P. Bolalikda semirib ketish / A. P. Averyanov, N. V. Bolotova, S. A. Zotova // *Ishtirok etuvchi shifokor*. - 2010. - № 2. - S. 52-63.

3. Aleshina E.I. Sankt-Peterburg bolalaridagi antropometrik ko'rsatkichlarning mintaqaviy xususiyatlari / E.I. Aleshina, L.V. Vorontsova, K.A. Klikunova [va boshq.] // *Bolalar kasalxonasi*. - 2014. - № 2. - S. 17-21.

4. Anisimova N.V. Maktabgacha ta'lim muassasalari bitiruvchilarining jismoniy rivojlanishi / N.V. Anisimova, O. N. Oparina, V. O. Peshkova // *XIX Xalqaro ilmiy-uslubiy konferentsiya "Universitet ta'limi (MKUO-2015)"*. Penza, 09-10 aprel 2015 yil - Penza, 2015 yil. -- S. 174-175.

5. Antonova A.A. *Bolalarning jismoniy rivojlanishining qiyosiy xususiyatlari* / A.A. Antonova, S.N. Chentsova, V.G. Serdyukov // *Astraxan.med. jurnal.* - 2012. - № 4. - S. 26 - 29.

6. Axtimankina A.V. *Irkutsk shahrining sanoat korxonalarini tomonidan havoning ifloslanishi* / A.V. Axtimankina, A.V. Arguchintseva // *ISU yangiliklari.* - 2013. - №1 (6). - S. 3 - 19.

7. Bakiyev N. Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning antropologik va fiziologik xususiyatlari* / N. Z. Bakiyev, N. N. Grebneva // *Vestn. Tyumen. davlat un-emasi.* - 2011. - № 6. - S. 116-122.

8. Bakiyev N. Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalarning morfologik va funksional xususiyatlari* / N. Z. Bakiyev // *XXI asrda sog'liq va ta'lim.* - 2011. - № 2. - P. 201.

9. Baranov A.A. *Zamonaviy sharoitda bolalar va o'spirinlarning morfologik va funksional rivojlanishining asosiy qonunlari* / A.A. Baranov, V.R. Kuchma, N.A. Skoblin [va boshq.] // *Vestnik Ross.akad. asal fanlar.* - 2012. - № 12. - S. 35-40.

10. Bashkirov P. N. *Insonning jismoniy rivojlanishi haqidagi ta'limot* / P. N. Bashkirov. - M.: Moskva davlat universiteti, 1962.- 340 p. Bezatyanyan M. A. *XX va XXI asr boshlarida o'smir bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish* / M. A. Bezatyanyan, A. A. Vinogradov // *Ilmiy. bayonotlar Belgorod.gos. un-emasi. Ser. Tibbiyot. Dorixona* - 2013. - № 25, yo'q. 24/1. - S. 154-157.